

ERKAK VA AYOL NUTQINING SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI

H.M.Tursunboyeva,

magistrant, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Maqola badiiy matnni sotsiopragmatik nuqtai nazardan o'rganib, tilning ijtimoiy kontekstdagi funksiyasini va genderga asoslangan nutq tafovutlarini yoritadi. Tadqiqotda "Sinchalak" qissasidagi ikki asosiy obrazning nutqi tahlil qilinib, erkak nutqi kuch va baholash strategiyalari bilan, ayol nutqi esa muloqotni uyg'unlashtirish va izoh berishga qaratilganligi aniqlangan. Shu bilan maqola badiiy matnda nutqiy vositalar va kommunikativ strategiyalar orqali ijtimoiy munosabatlarni qanday aks ettirilishini ko'rsatadi va sotsiopragmatik tadqiqotlarga yangi ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: sotsiopragmatika, gender, genderolingvistika, nutqiy muloqot, ijtimoiy mavqe, kommunikativ strategiya, jinsiy xoslanish, muloqot etiketi.

Abstract. The article examines the literary text from a sociopragmatic perspective, highlighting the function of language in social contexts and gender-based speech differences. The study analyzes the speech of the two main characters in the story "Sinchalak" and reveals that male speech is focused on power and evaluation strategies, while female speech is focused on harmonizing and explaining communication. Thus, the article shows how social relations are reflected in literary texts through speech devices and communicative strategies, and provides new information for sociopragmatic research.

Keywords: sociopragmatics, gender, gender linguistics, speech communication, social status, communicative strategy, gender specificity, communication etiquette.

Аннотации. В статье рассматривается литературный текст с социопрагматической точки зрения, освещается функция языка в социальных контекстах и гендерные различия в речи. Исследование анализирует речь двух главных героев рассказа «Синчалак» и показывает, что мужская речь сосредоточена на стратегиях власти и оценки, в то время как женская речь направлена на гармонизацию и объяснение коммуникации. Таким образом, статья демонстрирует, как социальные отношения отражаются в литературных текстах через речевые средства и коммуникативные стратегии, и предоставляет новую информацию для социопрагматических исследований.

Ключевые слова: социопрагматика, гендер, гендерная лингвистика, речевая коммуникация, социальный статус, коммуникативная стратегия, гендерная специфика, речевой этикет.

Kirish. Tilning jamiyatdagi ahamiyatini o'rganish bugungi zamonaviy tilshunoslikning o'z oldiga qo'ygan ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda nutq faoliyatini ijtimoiy omillar bilan bog'lab talqin qilish ehtiyoji sezila boshladi. Aynan shu kabi ehtiyojlar sabab sotsiolingvistika va pragmatika fanlarining kesishgan nuqtasida antroposentrik lingvistikaning tarkibiga kiruvchi sotsiopragmatika fani yaraldi. Sotsiopragmatika (lot. societas – "jamiyat" va yunoncha pragma – "faoliyat", "harakat") — tilshunoslikning ijtimoiy kontekstlarda tilning funksional realizatsiyasi va kommunikativ aktlarning jamiyatda me'yorlashgan shart sharoitlarga muvofiqligini o'rganuvchi subsohasidir. Bu yo'nalish til birliklarining ijtimoiy me'yorlar va pragmatik vaziyatlarga ko'ra qo'llanilishi, ularning sotsial o'zaro munosabatlardagi pragmatik roli hamda turli sotsiokommunikativ vaziyatlardagi kontekstual semantik xususiyatlarini tizimli tadqiq qilishga qaratilgan. Shu tarzda, sotsiopragmatik tadqiqotlar tilning jamiyatdagi kommunikativ jarayonlaridagi diskursiv

dinamikasini tahlil qilish orqali kommunikativ jarayonlar va sotsiolingvistik aspektlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sotsiopragmatika dastlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida xorij tilshunosligida yuzaga kelgan. 1983-yilda J.Lich tomonidan ushbu atamaning tilshunoslikka kiritilishi muloqot jarayonida tilni qabul qiluvchiga samarali ta'sir qilish modelini ishlab chiqish bilan boshlangan. Bunda asosiy e'tibor rasmiy ishbilarmonlik doiralarida og'zaki muloqot jarayonida ishlatiladigan til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Har qanday tilning sotsiopragmatik ko'nikmalari lingvistik kompetensiyani ham, kommunikativ kompetensiyani ham o'zida namoyon etadi. Sotsiopragmatika tilning fanlararo sohasi bo'lib, u so'zlovchilarning niyatlarini muayyan jamiyatdagi ijtimoiy kontekst bilan bog'liq holda o'rganadi [2]. Kommunikatsiya jarayonida nafaqat nutqiy vaziyat, balki suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei, rollari, statuslar aro munosabatlari ham muhim pragmatik omil sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shu omillar matnning sotsiopragmatik tahlilini amalga oshirish, undagi xushmuomalalik strategiyalari, nutq aktlarining ijtimoiy shartlanganligi va til birliklarining ijtimoiy konnotatsiyalarini aniqlashga metodologik asos yaratadi. Badiiy matn sotsiopragmatik aspektda tadqiq etilganda asosiy e'tibor til birliklarining nutq vaziyati, muloqot muhiti ta'sirida ijtimoiylashuvi yoki ijtimoiy xoslangan birliklarning matnda faollashuvi sabablarini ochib berishga qaratiladi.

Sotsiopragmatika bevosita muloqot muhiti bilan aloqador bo'lganligi bois antroposentrizm tilshunosligining barcha sohalari uchun birdek muhim bo'lgan muloqot muhiti, nutqiy akt tushunchasiz mavjud bo'la olmaydi. Tabiiyki, muloqot muhiti tushunchasi tarkibiy elementlari adresant va adresat tushunchalari bilan birgalikda qo'llanadi va sotsiopragmatik tadqiqotlar jarayonida manba vazifasini o'taydi. Uzatuvchi va qabul qiluvchi orasida axborot uzatish jarayoni sodir bo'lib, jarayonni kodlash va dekodlash, uzatish va qabul qilish singari bir necha xil nom bilan keltirish an'anasi mavjud. Biroq sotsiopragmatik tadqiqotlar uchun eng muhim bo'lgan jarayon - bu muloqotga kirishayotgan tomonlarning sotsial jihatlari hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. X.Yo'ldosheva badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqida quyidagi masalalarga e'tibor qaratadi: 1) til birliklarining ijtimoiy badiiy kontekstda qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari; 2) yozuvchi va u yaratgan personajlarning til belgisiga munosabati; 3) turli ijtimoiy qatlam vakillaridan iborat personajlarning kommunikativ maqsadga erishishda tildan qanday foydalanganligi; 4) personajlar nutqining muayyan ijtimoiy muhit, nutq vaziyati bilan bog'liq holda shakllanishi; 5) personajlar tomonidan nutq vaziyatiga bog'liq holda muloqot shakllarining tanlanishi; 6) turli sotsial guruhlar muloqotida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-madaniy omillar; 7) personajlar ijtimoiy mavqeyi, rollaridagi farqlanish, ularning kasb-kori, yoshi,

jinsi kabilarning badiiy matnda voqelanishi; 8) personajlar nutqida ijtimoiy xoslangan birliklarning faollashuvi va boshqalar [3].

Til inson hayotidan ajralmas bo'lib, uning jamiyatdagi faoliyati bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Lisoniy birliklarning qanday ijtimoiy vazifani bajarishi va ulardan qanday foydalanilishi ko'p jihatdan inson yashayotgan ijtimoiy muhit va tuzum bilan belgilanadi. Shu bois, zamonaviy tilshunoslikda til hodisalarini o'rganishda ijtimoiy omillarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda yangi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanayotgan genderolingvistika til tadqiqotlariga yangicha yondashuv olib kirdi. Ushbu yo'nalish til va jins o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Xususan, Sh. Safarov ta'kidlaganidek, keyingi yillarda izchil taraqqiy etayotgan gender tilshunosligining asosiy tadqiqot obyekti aynan ijtimoiy belgi bo'lmish jins hodisasining lisoniy faoliyatda aks etishi muammosidir [4]. Darhaqiqat, muloqotning jinsiy xoslanishi biologik va fiziologik omillar bilangina emas, balki muloqot etiketi jihatidan ham farqlanadi. Shu kabi tafovutlarda ijtimoiy pragmatika muhim o'rin tutadi.

Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Diskursning gender xususiyatlari haqida gap ketganda ayollar va erkaklar nutqida qo'llaniluvchi leksemalarni qiyoslash ham alohida ahamiyat kashf etadi. Tilshunoslarning kuzatishlaricha, tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko'proq va faolroq qo'llanilar ekan [5].

O'zbek tilshunosligida ham nutqning ijtimoiy, pragmatik va gender aspektlari so'nggi yillarda e'tibor markazida bo'lib kelayotgan mavzulardan hisoblanadi, jumladan, tadqiqotchi Xamidova M.ning O'lmas Umarbekov asarlari tilining sotsiopragmatik tadqiqida gender masalasi tadqiq etilgan. Dissertatsiyada badiiy matnlarda gap bo'laklaridan foydalanish tahlil qilinib, statistik natijalari qayd etilgan. Bunda ayollar ko'proq olmoshlar va yuklamalardan foydalanadi, degan xulosaga kelingan, ularda ko'proq va tez-tez "emas" to'liqsiz fe'li va "na-na" yuklamalarini qo'llash istagi yuqori ekanligi va erkaklar ko'pincha otlardan foydalanishi ta'kidlanadi. Tahlil etilgan badiiy matnjarda erkaklik izchillik bilan, ayollik esa sezgi bilan bog'liq holda namoyon bo'ldi. O'.Umarbekov asarlarida ayollarning o'ziga xos qiziqishlari, ular aqliy faoliyatida o'ziga xoslik, ayolning oilasi, bolalari va eri uchun haddan tashqari qayg'urishi kabilar ham ishonarli tasvirlanganligini kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasi sotsiopragmatik jihatdan tizimli ilmiy tahlil qilinmagan, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini

belgilovchi muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Asarda obrazlar o'rtasidagi muloqot ularning ijtimoiy mavqei va genderga xos rollari bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Erkak va ayol nutqining tashkil topishida nutqiy tashabbus, fikrni ifodalash usuli hamda munosabat bildirish shakllaridagi farqlar, ayniqsa, Saida va Qalandarov dialoglarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu obrazlar nutqida hukmronlik va bo'ysunuv munosabatlari, shuningdek, bilvosita va bevosita nutqiy ifoda vositalari kommunikatsiyaning assimetrik xarakterini belgilab beradi. Asardan olingan quyidagi dialog bunga yorqin misol bo'la oladi:

— *Arslonbek aka, o'zingiz yaxshi bilasiz... Kolxozchi dala ishi, ro'zg'or tashvishidan bo'shaganida boshini tiqib nafasini rostlaydigan bir joy qilishimiz kerak. Kolxozchi klubda o'ynab-kulsa, tomosha qilsa, bilmaganini bilsa, olamdan xabardor bo'lsa, hatto kasb, hunar o'rgansa... Agar klubni mana shunday joy qilgani yordam va'da qilsangiz, mayli, klub mudiri qilib tayinlang.*

Qalandarov zaharxanda kuldi:

— *O'zingiz ishbilarmon qizsiz! Sizga bizning yordamimiz kerak emas! Muxtoj emassiz!*

Mazkur dialog Saida va Qalandarov o'rtasidagi nutqiy muloqotda gender va ijtimoiy mavqe omillarining o'zaro kesishuvini yaqqol namoyon etadi. Saida nutqi muloqot jarayonida ayol obrazining ijtimoiy faollikka intilishi bilan birga, genderga xos ehtiyotkorlik va moslashuv strategiyalarini o'zida mujassamlashtiradi. U o'z fikrini to'g'ridan-to'g'ri talab shaklida emas, balki asosli va shartli nutqiy qoliqlar orqali bayon etadi. Bu holat ayol nutqiga xos bo'lgan bilvosita ta'sir ko'rsatish strategiyasining ustuvorligini ko'rsatadi. Saida nutqida “kolxozchi”, “dala ishi”, “ro'zg'or tashvishi” kabi leksik birliklarning ketma-ket qo'llanishi obraz xarakterida mehnatsevarlik va jamoaviylik ruhi ustunligini ko'rsatadi. Bu esa pragmatik jihatdan uning shaxsiy manfaatdan ko'ra umumiy ehtiyojni afzal ko'rganini bildiradi. Gender nuqtayi nazaridan bunday nutqiy pozitsiya ayol obrazining ijtimoiy tashabbuskor, biroq mavjud patriarxal muloqot doirasida o'z fikrini ehtiyotkorlik bilan ilgari suruvchi subyekt sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Qalandarov javob nutqida esa mutlaqo boshqa kommunikativ strategiya kuzatiladi. Uning “zaharxanda kuldi” tarzida tasvirlangan reaksiyasi noverbal pragmatik signal sifatida Saida nutqini jiddiy qabul qilmaslik, uni mensimaslik ma'nosini anglatadi. “Ishbilarmon qizsiz!” birikmasi tashqi tomondan maqtoov shaklida ko'rinsa-da, pragmatik kontekstda kinoya va diskreditatsiya vositasi sifatida qo'llanadi. Bu erkak nutqiga xos bo'lgan ustunlikni saqlab qolish va ayol tashabbusini pasaytirish strategiyasini ifodalaydi. Qalandarovning “Sizga bizning yordamimiz kerak emas!” mazmunidagi keskin va inkor shaklidagi gaplari muloqotdagi ijtimoiy mavqe tafovutini yanada kuchaytiradi. Bu yerda erkak obrazi o'zini hokim nutq subyektini, ayolni esa yordamga muhtoj emasligi bahonasida chetlashtiriladigan shaxs sifatida ko'rsatadi. Gender aspektda bu holat ayolning ijtimoiy

faol bo'lishiga nisbatan yashirin qarshilik va nutqiy bosim shaklida namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor ushbu nutqiy qarama-qarshilik orqali nafaqat obrazlar xarakterini, balki jamiyatdagi gender tengsizligi va ijtimoiy munosabatlarning nutq orqali ifodalanishini badiiy-pragmatik darajada ochib beradi.

Qalandarov yelkasidan bir tog' tushganday bo'lib, quvonchi ichiga sig'masa ham, o'zini tutib:

— Durust, durust! — dedi. — Ayol toifasidan bo'lsangiz ham, durust chiqdingiz!

Saida kuldi.

— Hech andisha qilmaysiz, odamga qattiq tegadi ham demaysiz-a, Arslonbek aka. Ayol toifasidan bo'lsang ham... Bu maqtaganingizmi?

Qalandarovning "Ayol toifasidan bo'lsangiz ham, durust chiqdingiz" tarzidagi nutqi tashqi jihatdan ijobiy baho shaklida berilgan bo'lsa-da, pragmatik kontekstda u gender stereotipiga asoslangan yashirin tanqidiy baholashni o'z ichiga oladi. "Bo'lsangiz ham" bog'lovchisi orqali ayollikka nisbatan past baho me'yor sifatida qabul qilinib, ijobiy xususiyat istisno holat sifatida ko'rsatiladi. Bu erkak nutqida jamiyatda ustuvor bo'lgan ba'zi qarashlarning nutqiy ifodasidir. Shu bilan birga, Qalandarov o'z quvonchini ochiq ko'rsatmay, nutqni nazorat qilishi orqali erkak nutqiga xos ustunlik va vazminlikni saqlaydi. Uning nutqida ayolga nisbatan yuqoridan turib baholash, "erkak biladi" pozitsiyasi seziladi.

Saida javob nutqida esa mazkur yashirin obro'sizlantirish kinoyaviy va pragmatik reaksiya orqali ochib beriladi. Uning kulishi va "Hech andisha qilmaysiz..." iborasi noqulay vaziyatni yumshatishga, o'z o'rnini saqlashga xizmat qiladi. Qolaversa, "andisha" so'zining tilga olinishi nutqiy etik me'yorlar buzilganini ko'rsatadi. Bu holat ayolning faqat bo'ysunuvchi emas, balki adolatni talab qiluvchi subyekt sifatida ham namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Uning "Ayol toifasidan bo'lsang ham... Bu maqtaganingizmi?" degan savol shaklidagi e'tirozi Qalandarov nutqining haqiqiy pragmatik mazmunini fosh qiladi. Ayol obrazining bunday nutqiy xatti-harakati passiv bo'ysunuv emas, balki muloqotdagi gender notengligini anglash va unga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishni anglatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, "Sinchalak" qissasida erkak va ayol nutqi orasidagi sotsiopragmatik tafovutlar aniq seziladi. Erkak nutqi ko'pincha baholovchi, ustunlikni saqlashga va ayol tashabbusini cheklashga yo'naltirilgan bo'lsa, ayol nutqi esa mulohazali, vaziyatni yumshatishga va suhbatdoshning xatti-harakatiga izoh berishga qaratilgan. Shu tariqa, matnda genderga oid ijtimoiy munosabatlar faqat voqealar orqali emas, balki nutqiy vositalar, konstruksiyalar va pragmatik strategiyalar orqali ham ifodalangan. Ushbu tadqiqot "Sinchalak" qissasini sotsiopragmatik va gender tilshunosligi nuqtai nazaridan tizimli o'rganish imkonini berib, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda yangi empirik material sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mashhura Yuldosheva. Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi (Tohir Malik asarlari misolida). «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, Namangan, 2025. 148 b. 10-b
2. Kunjana Rahardi, M.Hum. Pragmatik kontekst ekstralinguistik dalam perspektif cyberpragmatics. – Yogyakarta: Diterbitkan oleh Penerbit Amara Books, 2020. – Pp. 79.
3. Yo'ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc)... diss.avtoref. – Qarshi, 2023.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika (Pragmalinguistics), Tashkent, 2008.
5. Потапов В.В. Многоуровневая стратегия в лингвистической гендерологии // Вопросы языкознания. 2002, 1, С.

